

## ELEKTRON HUKUMATNI JORIY ETISHNING JAHON TAJRIBASI

*Boboxonov Jamshid Baxodir o'g'li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l Fakulteti*

*Soliq va soliqqa tortish yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

+998902632727

**Annotatsiya:** Maqolada davlat organlarining samaradorlik koyeffitsientini oshirish, elektron hukumatni rivojlantirish masalalari hamda hududlarni raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish ohib berilgan va uni joriy etish bo'yicha takliflar to'liq yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron hukumat, elektron hujjat, G2C, G2B, G2G, raqamlashtirish.

**Kirish:** Elektron hukumat-davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi. Elektron hukumat - barcha ham „ichki“, ham „tashqi“ aloqalar va jarayonlar majmuasi bo'lib, tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan quvvatlanib va ta'minlanib turadigan hukumat. Kommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan Internet) orqali axborotga ishlov berish, uni uzatish va tarqatishni elektron vositalari asosida davlat boshqaruvini tashkil qilishni, davlat hokimiyati organlarini barcha bo'g'lnlari tomonidan fuqarolarning barcha toifalariga elektron vositalar bilan xizmatlar ko'rsatish, o'sha vositalar yordamida fuqarolarga davlat organlarining faoliyati haqida axborot berish. „Elektron hukumat“ tushunchasi 1990-yillarning boshida paydo bo'lgan, lekin amaliyotga so'nggi yillardan boshlab tatbiq qilina boshladi. Elektron hukumatni ishlab chiqish bilan birinchi galda AQSh va Angliya hamda Italiya, Norvegiya, Singapur, Avstraliya va ayrim boshqa davlatlar (Fransiya, Germaniya, Katar, BAA va h.k.) shug'ullandilar. Elektron hukumatning uch asosiy rivojlanishi tizimi ajratiladi:- hukumat- aholi (G2C);- hukumat — biznes (G2B);- hukumat — hukumat (G2 G). O'zbekistonda ham elektron hukumat barpo qilish ishlari boshlab yuborilgan. Jahon tajribasiga mavjud amaliyotga ko'ra, u ikki o'zaro bog'langan, lekin funksional jihatdan mustaqil qismlardan, Hukumat Intranetidan va tashqi infratuzilmadan tarkib topgan. Hukumat Intraneti axborot tizimining ichki infratuzilmasini qamrab oladi, u davlat tuzilmalari tomonidan davlat korporativ vazifalarini amalga oshirishdagi o'zaro munosabatlarda foydalilanadi. Tashqi infratuzilma, davlatni fuqarolar (G2C) va tashkilotlar (G2B) bilan o'zaro ishslashini ta'minlaydigan ommaviy axborot infratuzilmasini qamrab oladi.

**Me'yoriy-huquqiy asos** — Mamlakatimizda elektron hukumat tizimi O'zbekiston O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida» va «Elektron hukumat to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi “O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

**Amalga oshirilgan yirik loyihamalar:**

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz)

Ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz)

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihamalarini muhokama qilish portali (regulation.gov.uz)

“Litsenziya” axborot tizimlari kompleksi (license.gov.uz)

“Yagona darcha” markazlari faoliyatini avtomatlashtirish bo'yicha axborot tizim (birdarcha.uz)

**Asosiy qism:** O'zbekistonda elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi asosiy muommolardan biri normativ-huquqiy baza va buni mamlakatimzda ko'pgina insonlar foydalanishini amalga oshirishda muommolar mavjud. Axborot tizimlari va resurslarini yaratish va integratsiyalash bo'yicha yagona texnologik yondashuvning yo'qligi ham to'siqlardan biri hisoblanadi. Axborot resurslari integratsiyasining talabga javob beradigan darajada emasligi ham sezilarli muommolardandir.

**Xulosa:** Dasturni amalga oshirish bo'yicha yagona yondashuv mexanizimning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish, ishlanmalar holati bo'yicha tizimli monitoring o'tkazish, loyihamarni amalga oshirish, elektron hukumatni samarali tadbiq qilish va faoliyat yuritish uchun tahlil o'tkazish hamda normativ huquqiy bazani takomillashtirishga oid vazifalarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. <https://mitc.uz/uz/pages/egovernment/2074>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Elektron\\_hukumat](https://uz.wikipedia.org/wiki/Elektron_hukumat)
3. <https://zenodo.org/records/8023466>